



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i> ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKİSTONDA INNOVATSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommina Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЎЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqitov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’ychiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG’ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO’LLARI VA TAMOYILLARI	521-531
--	---------

<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i>	
OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	532-537
<i>Қаршиева Дилбар Эшупулатовна</i>	
ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	538-542
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i>	
KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	543-547
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	548-556
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i>	
SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	557-562
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i>	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	563-574
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i>	
MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	575-582
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i>	
SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	583-587
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i>	
ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	588-591
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	592-599
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTHSIOLOGIK TAHLIL)	600-607
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i>	
МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	608-611
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEHNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	612-618
<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLLILLAR	619-623

<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	624-628
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	629-634
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	635-640
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	641-647
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	648-653
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	654-659
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	660-664
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	665-670

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

COMPARATIVE ANALYSIS IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS: PROCESS AND ACTIVITY-BASED APPROACH

Gulchehra Sharipboevna Fayzullaeva

Head of the Department of Pedagogy, Psychology,
and Educational Technologies,
Center of Pedagogical Skills of Samarkand
Region, Associate Professor (PhD)
E-mail: gulchexrasharipboyevna81@gmail.com

Abstract. The fact that the role of a teacher in modern education should become a teacher of its creation, rather than a transmitter of knowledge and content, is confirmed by the results of ongoing research, and advanced foreign experiences that promote such methods today also exist, and it is very important to promote and put them into practice. In the article, the essence of process-based teaching, i.e. PBL, in the continuous professional development of teachers is researched, a comparative analysis with an active approach is presented, and a model is developed.

Keywords: knowledge, cognitive strategies, practical experience, process, activity, generality, specificity, metacognition.

O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta'lif
texnologiyalari kafedrasи mudiri, dotsent (PhD)

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lilda o'qituvchi vazifasi bilim, mazmun uzatuvchidan ko'ra, uni yaratishni o'rgatuvchiga aylanishi lozimligi o'tkazilayotgan tadqiqot natijalari bilan o'z tasdig'ini topmoqda va bugungi kunda shunday metodikalarni targ'ib qiluvchi ilg'or xorijiy tajribalar ham mavjudki, ularni targ'ib qilish, amaliyotga kiritish juda muhim. Maqolada o'qituvchilarni uzlucksiz kasbiy rivojlantirishda jarayonga asoslangan o'qitishning, ya'ni PBLning mohiyati tadqiq qilingan, faoliyatli yondashuv bilan qiyosiy tahlili keltirilgan, shuningdek modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bilim, kognitiv strategiyalar, amaliy tajriba, jarayon, faoliyat, umumiylilik, xususiylik, metakognitivlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N77>

Kirish. Zamonaviy ta'lildan taraqqiyoti o'quvchidan nafaqat raqamli jarayonlarni mohirlik bilan boshqarishni, balki u bilan ishlash, uni yanada takomillashtirish darajasidagi yangi g'oyalar egasi bo'lib yetishishni talab etmoqda, chunki rivojlangan dunyoda ayrim bilimlar emas, nazariyalarni amaliyotga tatbiq qiladigan yangi hayotiy bilimlar va ularning sifatigina o'z o'rnnini topa oladi. O'quvchilarining bunday talab darajasida shakllanishida maktab ta'limi

muhim poydevor vazifasini o'taydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi ijodkor va mustaqil shaxsni tarbiyalash metodikasini chuqur o'zlashtirgan hamda o'z konsepsiyasini loyihalashda bilimlarni uzatish emas, uni yaratish modelidan ilhom olgan, faoliyatida doim amalga oshirgan bo'lishi zarur. Bilimlarni uzatish jarayoni kishida faol o'qishga asoslangandek tasavvur uyg'otadi, sababi u fundamental bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, shuningdek, asosiy tushuncha va g'oyalarni egallash ustun bo'ladi, lekin axborotlashgan, internet resurslari kontekstlar (fanga doir nazariy manbalar) bilan to'lgan bir davrda faqat mazmun uzatish – bu o'qitish va o'rganishga bir tomonlama yondashish bo'lib, ta'lim samaradorligini pasaytiradi.

Ta'limda qadamlar jadallik bilan tashlanayotgan, nazariyalar shiddat bilan yangilanayotgan bir paytda o'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish uchun mavjud innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, metodlardan foydalanish bilan birlgilikda, ularni takomillashtirish, alternativlarini ishlab chiqish lozim. Hozirda uzlusiz kasbiy rivojlanish uchun ko'plab usullardan foydalanish mumkin, biroq global o'zgarishlar sharoitida ayrim yondashuvlar kasbiy rivojlantirish muammosini hal qilishda boshqalariga nisbatan samaraliroq bo'la oladi. Bunda muammoni hal qilish rejiali o'quv jarayoniga asoslangan bo'lib, u kontent yoki o'quv dasturlari sohalarida qo'llaniladigan metakognitiv strategiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv shaxsning shug'ullanayotgan har qanday faoliyatida o'zi uchun mustaqil ta'limni tashkil eta olishi, o'quv jarayonida esa o'z-o'zini nazorat qila olishi bilan ahamiyatlidir.

O'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish(O'UKR)dagi eng muhim jihat o'z ta'limini rejalashtira olish, o'quv maqsadlariga erishish, malaka oshirish ta'limini individuallashtirish uchun ularda kognitiv jarayonlarni faollashtirish orqali pedagogik faoliyatini samarali olib borish, subyektivligini anglash, o'z vazifasini tushunishga urg'u berishdir. Shuningdek, rejalashtirish jarayonida yuz beradigan muammoli vaziyatlarni o'rganish maqsadi, yangidan yangi xulosalar chiqarish muhim. Demak, aytmoqchi bo'layotganimiz, ta'lim jarayoni maqsadga aylanadigan yaxlit yondashuv – bu jarayonga asoslangan o'qitish(Process-based learning)dir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Avvalo, jarayon nima ekanligi hamda jarayonga asoslangan o'qitish (JAO') tadqiqi mohiyatiga to'xtalsak. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "jarayon – ish-harakat, voqeа-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji, oqimi" [6; 73-b.] kabi ma'nolarni ifodalashi izohlangan. Ushbu o'qitish yondashuvi ilmiy termin sifatida milliy pedagogikamizdagi o'rganilishi tahlil qilinganda, xuddi shu nomdagi metodika yoki texnologiyaga duch kelinmadi, lekin mazmun jihatidan qaralganda esa, oxirgi vaqtarda o'qituvchining kognitiv darajasini, kasbiy rivojlanish jarayonida faoliyati o'zgarib borishining sifat va miqdor xususiyatlarini belgilovchi faoliyatli yondashuv ilgari surilayotganining guvohi bo'lish mumkin.

B.Xodjayev, A.Choriyev, Z.Saliyevalar hammuallifligidagi "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" darsligida faoliyatli yondashuv texnologik o'qitish yoki o'quvchilarning faoliyatiga bog'liq holdagi tuzilishiga muvofiq ta'lim mazmunini tashkil etishning zamonaviy paradigmasi sifatidagi qisqagina talqini uchraydi [4; 65-b.]. R.Choriyev, G.Boymurodovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda pedagog xodimlar malakasini oshirish jarayonini tashkil etish va boshqarish faoliyatli yondashuv asosiga qurilganda, samaradorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi tadqiq qilingan [5; 3-8-b.].

Tadqiqotchi olim A.Ibragimov tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa faoliyatli yondashuv o'qituvchining kasbiy rivojlanish jarayonidagi muammo, ehtiyoj va qiyinchiliklar

yechimining o'rganilib borishi sifatidagi ta'rifi jarayonga asoslangan o'qitish mazmunini qisman aks ettirishi bilan tadqiqot yo'nalishiga moslikni ifodalaydi. "Faoliyatli yondashuv XTXUKR(xalq ta'limi xodimlarini uzuksiz kasbiy rivojlantirish)ni tashkillashtirishda pedagogik faoliyat davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, muammolar yechimini mustaqil topish, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga doir bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallah, o'z-o'zini anglagan shaxsnı yaratishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv uzuksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini loyihalashda tizimning turli shakl hamda vositalarini inobatga olishga imkon beradi. Faoliyatli yondashuvda asosiy shart o'qituvchilarning uzuksiz kasbiy rivojlanishga ongli va aniq yo'naltirilgan harakatlari hisoblanar ekan, ularning faolligi, bilish jarayonlari, kognitiv imkoniyatlari, qiziqishlari, kasbiy o'sishga ehtiyoji asos bo'ladi" [1; 140-b.], ushbu iqtibosdagi "ongli va aniq yo'naltirilgan harakatlar" jumlesi jarayonga asoslangan o'qitishning shunday harakatlardagi rejalashtirilgan o'rganish ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, faoliyat tushunchasining lug'aviy jihatdan "harakat jarayonini" [7; 326-b.] ifodalashi ham atamalarning kesishish nuqtalariga egaligini bildiradi.

Mazkur nuqtalarini quyidagi fikrlar bilan ham dalillash mumkin. Akademik A.N. Leontyev [2] faoliyatni tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sir shakli sifatida qaraydi hamda uni yangi bilimlarga erishish, refleksiya, ta'lim oluvchining intellektual faolligi, kamolotining keyingi odimlarini loyihalash ko'nikmasi tarzida e'tirof etadi. Faoliyatli yondashuv g'oyalarining asoschisi hisoblanmish A.Disterveg [3; 24-b.] esa "insonga ta'lim berish va tarbiyalash jarayonlari uning shaxsiy faoliyati ichida kechadi", deya ta'kidlaydi. D.B. Elkoniñ nazariyasi [3; 25-b.] ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuvni amalga oshirish ta'lim oluvchilar oldiga mustaqil ravishda muammolarni shakllantirish, uning yechimlarini topish, hal qilish, yechimning to'g'rilingini nazorat qilish vazifalari mavjud bo'lishini asosiy shart, zaruriyat ekanligini olg'a suradi.

Tahlil va natijalar. Tahlillarimiz mantiqiy davomi sifatida tadqiqotimiz obyekti bo'lgan jarayonga asoslangan o'qitish tushunchasiga doir izlanishlarimizga to'xtalamiz. Ilg'or xorijiy tajribalarda jarayonga asoslangan o'qitish yangicha g'oyalarni o'zida mujassam qilgan sermahsul amaliyot sifatida ommalashayotganini kuzatish mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarimizga tayangan holda tushunchaning mazmun-tahlilini quyidagicha tartiblashtirish uning mohiyatini mumkin qadar yoritish imkonini beradi (1-jadval):


1-jadval.

Jarayonga asoslangan o'qitish tushunchasining mazmun-tahlili

Manba	Mualliflar talqini
Simon, H. (1997). Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organizations, 4th Ed. The Free Press [13].	Jarayon konsepsiyasidagi o'qituvchining asosiy vazifalari o'quvchilarning o'qish va o'rganish davomida foydalanadigan fikrlash faoliyatini boshlash va qo'llab-quvvatlashdir.
New Learning. Chapter: 11. Jan Vermunt, Lieven Verschaffel. DOI: 10.1007/0-306-47614-2_11 . Publisher: Kluwer Academic Publishers, 2000. – P. 209-225 [12].	Talabalarning ta'lim jarayonlari va o'z-o'zini tartibga solish hamda o'rganishning tashqi holat oralig'idagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha tadqiqot va nazariyalarga asoslangan bo'lib, bir tomondan o'rganish hamda fikrlash strategiyalarini, ikkinchi tomondan sohaga oid bilimlarni integratsiyalashgan holda o'qitishga qaratilgan.

<p>Kelly Rose Hostetler. Process Based Learning in Planning Studio Pedagogy: A Theoretical Model for Planning Education. University of Washington, 2014 [10].</p>	<p>Jarayonga asoslangan o'rganish o'ziga xos bo'lgan o'quv sayohati jarayonini o'z ichiga oladi. Bu PBLning o'rganishni rejalashtirish jarayoni sifatida namoyon bo'lib, talabalar kashfiyot jarayonida tabiiy ravishda xatoliklarga yo'l qo'yish kuzatilsa, metokognitivlik esa navbatdagi qadamdan oldin xatoliklarni o'ylashga yordam beradi, noto'g'ri qadamni to'g'rilash yoki keyingisini rejalashtirish uchun fanlararo hamkorlik yuzaga chiqadi va eng muhimi yuqoridagi elementlarning barchasi bir yaxlitlikda tushuniladi, shuningdek, muhimlik darajasi ham tengdir.</p>
<p><u>Beau Kenyon. The Value Of Process-Based Learning. Mar 17, 2020/ Resources, Tips , https://solbelearning.com/the-value-of-process-based-learning</u> [8].</p>	<p>Bolaning kognitiv rivojlanishiga tubdan ta'sir qiladigan o'rganish amaliyoti bo'lib, o'qituvchilardan o'quvchilar uchun ko'nikmalar, texnikalar va eng muhimi o'rganayotganlarini anglashlari bilan bog'liq chuqur hamda mazmunli munosabatni tasavvur qilish, kashf etish uchun vaqt va makon yaratishni talab qiladi.</p>
<ul style="list-style-type: none"> • The Hairy Bikie and Other Metacognitive Strategies. Chapter: Process-Based Learning / Jeffrey Baron Levi. First Online: 08 August 2020. <u>https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3_2</u> [14]. 	<p>Jarayonga asoslangan ta'limga yoki o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limga har qanday muayyan kontent sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan sof metakognitiv strategiyadir, ya'ni u qaysidir jarayonda beriladigan ko'rsatmalardan farqli o'laroq, istalgan sohadagi muammoni hal qilish rejasini o'z ichiga oladi.</p>
<p><u>https://www.themanthanschool.co.in/blog/concept-based-vs-process-based-learning/. January 2023. The Manthan School</u> [16].</p>	<p>Bolalarga maktab muhitida haqiqiy, amaliy tajribalarni taqdim qilishga yo'naltirilgan erta bolalik ta'lumi uchun samarali yondashuv. Ushbu yondashuv bolalarni atrof olamni o'rganish uchun kashf qilish va tajriba o'tkazishga undaydi.</p>


Yuqorida keltirilgan fikrlar, ilmiy izlanishlar, tahlillar asosida jarayonga asoslangan o'qitish faoliyatli yondashuv maqsadi, g'oyalari, qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, muayyan holatda uning tarkibiy qismiga kiruvchi, o'qituvchining kasbiy-shaxsiy faoliyatidagi rivojlanishini ifodalovchi faol o'rganish va xatti-harakatni ifodalaydi, degan xulosaga keldik (1-rasm).



1-rasm. Jarayonga asoslangan o'qitish va faoliyatli yondashuv tushunchalarining qiyosiy tuzilmasi

Xo'sh, JAO'ni o'qituvchilarni uzlucksiz kasbiy rivojlantirish davomida qo'llashning mohiyati, afzallikkari nimadan iborat? Bu yondashuv o'qituvchida qanday tajribani shakllantiradi? Ayni vaqtdagi texnologiya taraqqiyoti davrida ta'limning mazmunga asoslangan o'qitishdan jarayonga asoslangan o'qitishga o'tib borayotgani pedagogik nuqtai nazardan qabul qilingan yondashuvlarning o'zgarayotganini, kognitiv ta'lim strategiyalarining ommalashayotganini bildiradi. Jarayonga asoslangan o'qitishning tabiatiga o'quvchilar o'rGANishi davomida yuzaga chiqadigan fikrlash faoliyatiga markaziy o'rinning berilganligi bilan qiymatlidir. Fikrlash faoliyatining o'rGANISHI jarayonida kognitivlik (bilish, anglash, tushunish), affektivlik (hissiy ta'sir) va tartibga soluvchi faoliyat (o'z-o'zini tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi) kabi turlari ajratiladi. Shuningdek, taklif qilinayotgan o'qitish mohiyatidan kelib chiqsak, o'qituvchi mazmun yaratuvchi, uzatuvchi emas, balki "maslahat beruvchi murabbiy, fasilitator", deb atalishi maqsadga muvofiq.

JAO' pedagog xodimlarning uzlusiz kasbiy rivojlanishida, bir tomonidan, o'rganish va fikrlash strategiyalarini, ikkinchi tomonidan, sohaga oid bilimlarni integratsiyalashgan holda o'qitishi bilan ahamiyatlidir. Bu o'qituvchida ma'lum bir kompetentlik, mavzu bo'yicha bilimlarni yaratish, o'zgartirishlar kiritish, o'quv jarayonining ichki va tashqi nazorati uchun farqlovchi o'lchov hamda ulardan foydalanish uchun mos ta'lim va fikrlash faoliyatini qo'llashga qaratilgan o'quv modelidir. UKRda jarayonga asoslangan o'qitishni quyidagicha modellashtirish mumkin (2-rasm):



2-rasm. O'qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirishda jarayonga asoslangan o'qitish modeli

Yuqorida keltirilgan model tarkibiy jihatdan rejalashtirish, asosiy elementlar, bosqichlar va natijani o'z ichiga oladi.

Ta'lif natijalariga nisbatan tegishli baholashlarni amalga oshirishdan oldin tizimda sodir bo'ladigan eng muhim o'quv jarayonlarini tavsiflash va omillarni belgilash zarur. Jarayonga asoslangan o'qitishda rejalashtirish tabiatan dinamik, innovatsion, xilma-xil amaliy ishlarning yaxlit ifodasıdir. Bunday rejalashtirish to'rt bosqichli bo'lib, aniq tajriba, reflektiv kuzatish, mavhum konsepsiya va faol tajribani o'z ichiga oladi. Shuningdek, JAO'da g'oyaviylik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, onglilik, integrativlik, hamkorlik, kommunikativlik, ijtimoiylashuv muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Misol uchun, o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda uning birgina o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish sohasiga taalluqli muammo tanlanganda, uning yechimiga borish davomida tayyorlangan reja yoki loyihibiy ish yangi g'oyalarni qabul qilish uchun ochiq va jarayondagi o'zgarishlarga ko'proq moslashuvchan bo'ladi hamda bunday rejalashtirish asosida o'quv dasturlari yaratiladi. Rejalashtirishda JAO'ning asosiy elementlari bo'lgan 1) kashfiyat jarayoni; 2) fanlararo hamkorlik; 3) metakognitivlik asos sifatida xizmat qiladi.

Kashfiyat jarayoni – bu o'z-o'zini rivojlantirayotgan o'qituvchi uchun faoliyatidagi asosiy prinsiplarini tushunish va ularni yangi yechimlar yaratish uchun qo'llash usuli bo'lib, o'qituvchi faoliyat egasi sifatida mavjud g'oyalalar bilan (masalan, texnologiyalar, dars, o'qitish metodlari, o'z ustida ishlash) ramziy ma'noda kurashish yangi haqiqatlarni kashf qilish imkonini beradi. Kashfiyat jarayoni individual yoki jamoaviy ish muhitida ham sodir bo'lishi mumkin hamda mustaqillik, yo'naltirilgan so'rov, murakkablashgan (chuqur) so'rov, sinovlar, xatoliklar, hamkorlik hamda ba'zan umidsizlik natijasi hamdir. Kashfiyat jarayonida o'qituvchining bir muammo ustida olib borayotgan xatti-harakatlari fasilitator tomonidan doimiy boshqarilganda, yo'l-yo'riqlar ko'p bo'lganda ham yoki haddan ortiq erkinlik ham o'ziga xos maqsadlardan og'ish, yakuniy natijaga putur yetkazishga olib keladi. Eng muhim jihat, o'qituvchining qayerda, qanday maqsadni ifodalash uchun qilinayotgan xatti-harakatlarni tushunishdadir.

Fanlararo hamkorlik – kishining fundamental bilimlari o'zaro tashqi ta'sirlar natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda o'z o'rniqa ega bo'ladi, ya'ni aqliy hayot boshqalar bilan munosabatda bo'lishi bir qancha tadqiqotlarda ta'kidlangan [15]. O'qituvchining kasbiy o'sishdagi faoliyatini "ustoz-shogird" an'anasisiz, hamkasblar tajribasisiz tasavvur qilish qiyin. Fanlararo hamkorlik maktab muhitidan ancha keng, chunki bugungi global jamiyatda qanday hamkorlik qilishimiz, bizning o'qitishimiz, innovatsiyalar qilishimiz va ularga bog'liqligimiz haqida ma'lumot beradi.

Metakognitiv o'rganish – ichki jarayonning tashqi ko'rinishi, ya'ni o'qituvchilar o'z o'rganishlarini qanday?, nima uchun?, qachon? sodir bo'layotgani haqida fikr yuritganda, ular o'z xulosalaridan keyin ham ko'proq tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini saqlab qolishlari mumkin. Metakognitivlikda o'qituvchi ko'proq erishgan yutuqlari va kundan kunga amalga oshirayotgan harakatlarini kuzatishda, o'quv jarayonida faol bo'ladi, paydo bo'layotgan vaziyatlarda yechim topuvchi kuch o'zida ekaniga ishonadi. O'quvchilardagi bunday anglanish jarayoni Bruner tomonidan faol o'rganish, deb nomlangan. An'anaviy qarashlarga ko'ra, metakognitivlik individual tarzda namoyon bo'lishi tadqiq qilingan bo'lsa, keyingi yillarda jamoaviy ishda guruhdha o'zaro muhokamalarga samimi kirishish, tanqidiy fikrlash jarayonining muvaffaqiyatli kechishi jamoaada meta-bilish (tanish, anglash) sodir bo'lishi natijasi ekanligi ta'kidlanmoqda [9]. Umuman olganda, jarayonga

asoslangan o'qitishda metakognitivlik suhbatlar, jamoaviy o'rganish orqali tashqi ko'rinishda namoyon bo'ladi va bu tanqidiy fikrlash strategiyalarini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar. Demak, O'UKRda jarayonga asoslangan o'qitishni qo'llash shaxsiy, kasbiy o'sishga oid bilimlarni uyg'unlikda o'rgatishga qaratilganligi, shuningdek, yangi mazmunni o'rganish bo'yicha tegishli o'z-o'zini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish, modellashtirish, kognitiv murabbiylik, yo'naltirilgan ta'lim, o'quv jarayonlari ustidan nazoratni tinglovchiga bosqichma-bosqich o'tkazishi bilan muhimdir. O'rganishlar xulosasiga ko'ra, aynan JAO' yondashuvi o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda, uzlusiz kasbiy rivojlantirishda muammoga, loyiha va shaxsga asoslangan o'qitish yondashuvlari bilan strukturada tizimlash mumkin bo'lgan, biri ikkinchisini taqozo etuvchi uzviylik zanjiri hosilasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. – Samarqand, 2022. – 389 b. – B. 140.
2. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. / A.N. Leontyev. – M.: Smysl, Akademiya, 2005. – 352 s.
3. Prixodchenko Ye.I., Kuzmicheva A.S., Motuzenko N.I. Deyatelnostnyiy podxod v obuchenii // Vestnik Doneskogo pedagogicheskogo instituta. – Donesk, 2017. – №2. – S. 22-27.
4. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. // B. Xodjayev va b.– Toshkyent: IQTISODIYOT DUNYOSI nashriyoti, 2018. – 190 b. – B. 65.
5. Choriyev R.Q., Boymurodova G.T. Faoliyatli yondashuv asosida pedagog xodimlar malakasini oshirish jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari // Zamonaviy ta'lim. – 2016. – № 5. – B. 3-8.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b. – B. 73.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b. – B. 326.
8. [Beau Kenyon. The Value Of Process-Based Learning. Mar 17, 2020/ Resources, Tips |, https://solbelearning.com/the-value-of-process-based-learning.](https://solbelearning.com/the-value-of-process-based-learning)
9. Christopher Monson. Practical discourse: Learning and the ethical construction of environmental design practice // [Ethics, Place & Environment, Volume 8, 2005 - Issue 2.](https://doi.org/10.1007/s11846-005-0002-2) Article | Published Online: 07 Oct 2010.
10. Kelly Rose Hostetler. Process Based Learning in Planning Studio Pedagogy: A TheoreticalModel for Planning Education. University of Washington, 2014.
11. Metacognitive Strategies. Chapter: Process-Based Learning / Jeffrey Baron Levi. First Online: 08 August 2020. [https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3_2.](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3_2)
12. New Learning. Chapter: 11. Jan Vermunt, LievenVerschaffel. DOI:[10.1007/0-306-47614-2_11](https://doi.org/10.1007/0-306-47614-2_11). Publisher: Kluwer Academic Publishers, 2000. – P. 209-225.
13. Simon, H. (1997). Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organizations, 4th Ed. The Free Press.
14. The Hairy Bikie and Other Metacognitive Strategies. Chapter: Process-Based Learning / Jeffrey Baron Levi. First Online: 08 August 2020. [https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3_2.](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3_2)

15. [https://www.researchgate.net/publication/229572943 A Narrative Model of Self-Construction.](https://www.researchgate.net/publication/229572943)
16. <https://www.themanthanschool.co.in/blog/concept-based-vs-process-based-learning/>. January 2023. The Manthan School.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).